**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.10.04.P.01.18 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NASIMDJANOVA MAXSUMA MAJIDOVNA

SHAXSDA INKULTURATSIYA VA AKKULTURATSIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K 101.1:316:316.73-05(575.1)

Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора психологических наук (DSc)

Contents of the dissertation abstract for the degree of Doctor of Science (DSc) in Psychology

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna
Shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillari.....3

Насимджанова Махсума Мажидовна
Социально-психологические факторы инкультурации и аккультурации личности ……29

Nasimdjanova Makhsuma Majidovna
Socio-Psychological Factors of Individual Enculturation and Acculturation.....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.10.04.P.01.18 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NASIMDJANOVA MAXSUMA MAJIDOVNA

SHAXSDA INKULTURATSIYA VA AKKULTURATSIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/P102 raqami bilan ro‘yxatga olingan

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslaxatchi:	**Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna** psixologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdumajidova Dildora Raxmatullayevna** psixologiya fanlari doktori (DSc)
	Umarov Baxriddin Mingbayevich psixologiya fanlari doktori, professor
	Mullaboyeva Nozima Maxmudjanovna psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2026.10.04.P.01.18 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “11” - dekabr soat 14⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 416-xona. Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (315raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (+99871) 236-46-55; faks: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “23” noyabr kuni tarqatildi.
(2026 yil “23” noyabr dagi 78 raqamli reyestr bayonnomasi).

O‘.B.Shamsiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.S.Turakulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S.Safayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

Сканировано с CamScanner

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv davrida an’anaviy qadriyatlarga tayanish va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish orqali milliy o‘zlikni anglash, o‘z madaniyati hamda tilini saqlab qolish hamda ularni keyingi avlodga yetkazish har bir jamiyat va ijtimoiy-etnik guruhlar oldida turgan murakkab vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, Birlashgan millatlar tashkilotining madaniy xilma-xillik va moddiy bo‘lmagan madaniy merosni saqlashga bag‘ishlangan hujjatlarida madaniyatlar xilma-xilligi hamda integratsiyasiga erishish har bir fuqarolik jamiyatining nafaqat iqtisodiy rivojlanish manbai, balki intellektual, emotsional, ahloqiy va ma’naviy hayotini ta’minlovchi vosita ekanligi ta’kidlanadi[1]. Mazkur hujjatlarda umumdunyoviy madaniyatlarning o‘sishi bilan milliy madaniyatlarning taqdiri o‘rtasidagi mutanosiblik asosiy muammoga aylanayotgani, milliy madaniyatlar ahamiyati kamayib borayotgani qayd etiladi. Milliy madaniyat buzilishi sabablaridan biri sifatida “ommaviy madaniyat” elementlarining jadal sur’atlarda tarqalayotgani va aynan ular barcha uchun madaniy standartga aylanayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bois, madaniyatlararo integratsiya va kommunikatsiya, migratsion jarayonlar, chet tillarini o‘zlashtirish imkoniyatlarining kengayishi, insonning o‘z xalqi urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, xulq-atvor me’yorlariga xos stereotiplarga baholovchi munosabatining ortishi va ularni o‘zgartirishga intilishi inkulturatsiya hamda akkulturatsiya jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va xususiyatlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Dunyoda madaniy yaxlitlikning shakllanishi yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan muammolarning paydo bo‘lishi bilan kechayotganini ishonchli tarzda ko‘rsatmoqda. Madaniyatlararo aloqalarning kengayishi inqirozlar, halokatli hodisalar, dunyoqarashlarning o‘zgarishi va har bir madaniyatda innovatsion izlanishlarni keltirib chiqaradi. Madaniyatlarning o‘zaro ta’siri madaniyatlararo bag‘rikenglik, madaniy farqlarni adekvat idrok etish g‘oyalari asosida madaniyatlararo aloqalarni va o‘z madaniy o‘ziga xosligini qayta baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi, bu sharoitda madaniyatlar o‘rtasidagi samarali munosabatlar va ularning tashuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish zarur shartlardan biridir. Bugungi kunda ko‘plab olimlar tomonidan jahonda madaniyatlarning tanazzulga uchrashi tendensiyalarini kuzatilayotgani ta’kidlanmoqda: antiqadriyatlarning tarqalishi, axloqiy yo‘riqnomalar va ideallarning yo‘qolishi, inson faoliyatining deyarli barcha spektrlarini qamrab olmoqda. Shaxsning an’analar, ideallar, me’yorlar va qadriyatlardan begonalashishi, ular asosida madaniy shaxs shakllanishi va o‘zini o‘zi shakllantirishi mumkinligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jamiyat bo‘ylab tarqalib ketgan bu hodisa yoshlar submadaniyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, tezda antimadaniyatga aylanib bormoqda, bu esa ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib keladi va nafaqat yoshlar balki avlodlar o‘rtasida ham zo‘ravonlik, halokat hamda qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi va kuchayishi uchun old shart-sharoitlar yaratadi.

[1] Всеобщая декларация Юнеско о культурном разнообразии // https://ifap.ru/ofdocs/unesco/culture.htm

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-son farmoni “O‘ZBEKISTON – 2030” strategiyasida[2] xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosi yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida milliy hamda umummilliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini bolalik paytidan boshlaboq shakllantirishning ijtimoiy va psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-son farmoni “O‘ZBEKISTON – 2030” strategiyasi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[3]. Inson tomonidan o‘z xalqi madaniy qadriyatlari, xulq-atvor meyorlari, urf-odatlari va an’analarini o‘zlashtirilishining ahamiyatini o‘rganishga doir tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Queen’s University

[2] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi 158-son Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413

[3] Sharh dissertatsiya mavzusi bo‘yicha quyidagi Internet-saytlarda joylashtirilgan ilmiy izlanishlarni qamrab olgan: J.W. Berry, J.S. Phinney, D.L. Sam va P. Vedder (2006), International Comparative Study of Ethnocultural Youth (ICSEY), https://www.queensu.ca/, https://www4.uib.no/en, https://www.universiteitleiden.nl/en. J.S. Phinney (1992), The Multigroup Ethnic Identity Measure: A New Scale for Use with Diverse Groups, https://www.calstate.edu/. S.J. Schwartz va boshq. (2016), Testing the Parent–Adolescent Acculturation Discrepancy Hypothesis: A Five-Wave Longitudinal Study, https://welcome.miami.edu/. A.-M.D. Nguyen va V. Benet-Martínez (2013), Biculturalism and Adjustment: A Meta-Analysis, https://www.upf.edu/. E. Yoon va boshq. (2013), A Meta-Analysis of Acculturation/Enculturation and Mental Health, https://www.luc.edu/. T.B. Smith va L. Silva (2011), Ethnic Identity and Personal Well-Being of People of Color: A Meta-Analysis, https://www.byu.edu/. Т.Г. Стефаненко (2004), Компоненты этнической идентичности: когнитивный, аффективный, поведенческий, https://msu.ru/divisions/faculteti/psychol. Е.А. Гришина (2010), Динамика эмоциональных состояний личности в условиях кросс-культурной адаптации, avtoreferat katalogi. Federal psixologik va fanlararo tadqiqotlar ilmiy markazining rasmiy sayti — https://pirao.ru/.

(Kanada), Leiden University (Niderlandiya), California State University (AQSH), University of Miami (AQSH), Universitat Pompeu Fabra (Ispaniya), Loyola University Chicago (AQSH), Brigham Young University (AQSH), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti sotsial psixologiya kafedrasi (Rossiya), Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti (Rossiya), kabi dunyoning yirik ilmiy maskanlarida olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti muammosi bo‘yicha xorijiy ilmiy markazlarda quyidagi natijalar olingan: shaxsning o‘z etnomadaniy qadriyatlarini saqlashi va yangi madaniyat bilan faol munosabat o‘rnatishini birlashtirgan integratsiya strategiyasi psixologik hamda ijtimoiy-madaniy moslashuvning nisbatan yuqori darajasini ta’minlashi aniqlangan (Queen’s University, Kanada; University of Bergen, Norvegiya); 13 mamlakatdagi 5366 nafar immigrant o‘spirin ishtirokidagi tadqiqotda integratsion profil ijobiy moslashuv, diffuz profil esa identiklik noaniqligi va moslashuv qiyinchiliklari bilan bog‘liqligi isbotlangan (Leiden University, Niderlandiya); etnik identiklikning izlanish, anglash, mansublik va etnik guruhga sodiqlik komponentlari ajratilgan hamda ularni turli etnik guruhlarda qiyosiy baholash imkonini beruvchi MEIM metodikasi ishlab chiqilgan (California State University Los Angeles, AQSH).

Shuningdek, o‘spirin va ota-onalarning akkulturatsiya darajasidagi tafovutning salbiy oqibatlari bevosita tafovutga emas, balki oilaviy hamjihatlik, muloqot va moslashuvchanlik darajasiga bog‘liqligi aniqlangan (University of Miami, AQSH); 83 ta tadqiqot va 23 197 nafar ishtirokchi natijalarining meta-tahlilida bikulturalizm psixologik farovonlik hamda ijtimoiy-madaniy moslashuv bilan ijobiy bog‘liqligi isbotlangan (Universitat Pompeu Fabra, Ispaniya); 325 ta tadqiqot meta-tahlilida inkulturatsiya va akkulturatsiyani ikki mustaqil yo‘nalish sifatida o‘lchash bir yo‘nalishli yondashuvga qaraganda ishonchliroq natija berishi, integratsiya ruhiy salomatlik bilan ijobiy, marginalizatsiya esa psixologik qiyinchiliklar bilan bog‘liqligi aniqlangan (Loyola University Chicago, AQSH); 184 ta tadqiqot natijasida etnik identiklik va shaxsiy farovonlik o‘rtasida barqaror ijobiy bog‘lanish mavjudligi aniqlangan (Brigham Young University, AQSH); T.G.Stefanenko rahbarligida etnik identiklik hamda inkulturatsiya masalalari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Etnik identiklikning kognitiv va affektiv komponentlari aniqlangan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti sotsial psixologiya kafedrasi, Rossiya); tadqiqotlarda migrantlarning kross-madaniy moslashuvi o‘rganilgan, emotsional holatlar yashash muddati, qabul qiluvchi madaniyatga munosabat va mahalliy aholining munosabati qanday qabul qilinishiga bog‘liq holda tahlil qilingan (Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inkulturatsiya va akkulturatsiya masalalari ilmiy tadqiqot predmeti sifatida XX asrning boshlarida psixologiya fanida dolzarb muammo sifatida qaraldi hamda ilmiy tadqiqotlar predmeti sifatida tanlanib, hozirgi kungacha mamlakatimiz va yaqin hamda uzoq xorij mamlakatlari ijtimoiy psixologiyasida turli psixologik ta’limot va konsepsiyalar doirasida o‘rganiladi: ijtimoiy-psixologik hodisalarning etnopsixologik qirralari (Z.E. Abduraxmonova, Sh.R. Barotov, V.M. Karimova, M.M. Mamatov,

D.G. Muxamedova, Z.A. Rasulova, N.S. Safayev, G.Sh. Salomova, E.G‘. G‘oziyev, U.B. Shamsiyev, G‘.B. Shoumarov va boshqalar)[4], inkulturatsiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi omil sifatida ikki tillilikning indikatorlik roli (V.G.Kostomarov, A.YE.Suprun, A.D.Shveyser va boshqalar)[5], inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlarining yoshga oid xususiyatlari (T.D.Dugarova, N.L.Zaxarova, YE.N.Chubrik va boshqalar)[6], inkulturatsiya jarayonining yosh xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik mohiyati (N.M.Lebedeva, P.G.Pochebut, G.S.Soldatova, T.G.Stefanenko va boshqalar)[7], akkulturatsiya jarayoni va uning strategiyalari (Dj.Berri, R.Linton, Dj.Pauell, R.Redfild, M.Xerskovits va boshqalar)[8].

Uzoq va yaqin xorij olimlaridan R.Benedikt, E.Erikson, Dj.Marsiya, D.Matsumoto, M.Mid, R.Park, T.Parsons, P.A.Sorokin, Y.Xabermas inkulturatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va psixologik omillarni tadqiq etganlar[9].

---

[4] Abdurahmonova Z.X. “Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish”. Fals. fan. nomz. … diss. – Toshkent, 2006. – 140 b.; Baratov Sh.R. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. – 504 b.; Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент, 1994. – 200 б.; Маматов, М.М. Этнопсихология. Учебное пособие / М.М.Маматов, Данебекова; рец.: Э.Г.Газиев, З.Т.Нишанова. – Ташкент: НУУ, 2006. – 117 с.; Муҳаммедова Д.Г. Социально-психологические особенности оптимизации управленческой деятельности менеджера образования. Дисс. ... д-ра психол. наук. – Ташкент, 2002. – 232 с.; Rasulova, Z.A. O‘zbeklarda oila-nikoh an’analarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Psixol. fan. d-ri ... diss. avtoref. O‘zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent, 2018. – 62 b.; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодёжи. Дисс. ... д-ра. психол. наук. – Ташкент: УзНУ, 2005. – 36 с.; Salomova G.SH. Madaniyatlararo kompetentlik talabalar kognitiv jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omili sifatida. Psixol. fan. d-ri … diss. avtoref. – Toshkent,2024; G‘oziyev E.G. Sotsial psixologiya. Darslik. – Toshkent: Noshir, 2012. – 316 b.; Shamsiyev, U.B. Oilaviy xolding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi. Monografiya. – Toshkent: Navruz, 2018; Шоумаров, Г.Б. Социальная психология. Учебник [для вузов] / Г.Б.Шоумаров, Ф.Н.Халилов, Х.Х.Жабборов; Ташкентский государственный университет востоковедения. – Ташкент, 2022.

[5] Костомаров, В.Г. Языковой вкус эпохи: Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа / В.Г.Костомаров. – 3-е изд. – Санкт-Петербург: Златоуст, 1999. – 320 с.; Супрун, А.Е. Текстовые реминисценции как языковое явление / А.Е.Супрун // Вопросы языкознания, 1995. – № 6. – С. 17-29; Современная социолингвистика. Теория, проблемы, методы / А.Д.Швейцер. 3-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2011. – 176 с.

[6] Дугарова, Ц.Д. Инкультурация личности в современной национальной школе. Автореф. дисс. ... канд. культурологии. – Чита, 2004. – 21 с.; Захарова, Л.М. Этнопедагогическая направленность дошкольного воспитания в отечественной педагогике (вторая половина XIX – начало XXI вв.). Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. – Ульяновск, 2011. – 46 с.; Чубрик Е.О. Русский детский фольклор как средство ранней инкультурации. Автореф. канд. культур. наук. – Владивосток, 2007. – 18 б.; Дугарова, Ц.Д. Инкультурация личности в современной национальной школе. Автореф. дисс. ... канд. культур. наук. – Чита, 2004. – 21 с.

[7] Лебедева Н.М. Социальная психология аккультурации этнических групп. Автореф. дисс. ... д-ра психол. наук. – М., 1997; Почебут Л.Г. Кросс-культурная и этническая психология. Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2012. – 336 с.; Солдатова Г.У. Толерантность и интолерантность – две грани межэтнического взаимодействия // Век толерантности: научно-публицистический вестник, 2001. Вып. 1-2. – С. 19-37; Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. Учебник для высших учебных заведений. – М.: Институт психологии РАН, 1999. – 320 с.; Лебедева Н.М. Социальная психология аккультурации этнических групп. Автореф. дисс. д-ра ... психол. наук. – М., 1997.

[8] Berry J.W. Immigration, Acculturation, and Adaptation // Applied Psychology: An International Review, 1997. Vol. 46. N. 1. – P. 5-68; Acculturation in Seven American Indian Tribes / ed. by R.Linton. Reprint ed. – Gloucester, Mass.: P.Smith, 1940 (reprinted 2026). – 526 p.; Powell, J.W. Introduction to the Study of Indian Languages: With Words, Phrases, and Sentences to be Collected / J.W.Powell. Reprint ed. – London; New York: Legare Street Press, 2022. – 250 p.; Redfield R., Linton R., Herskovits M.J. (1936) Memorandum for the Study of Acculturation. American Anthropologist, Vol. 38. No. 1. – P. 149-152; Herskovits M. J. Cultural Anthropology. – New York: Alfred A. Knopf, 1955; Digital reissue: Internet Archive, 2010. – 569 p.

[9] Бенедикт, Р. Модели культуры / Р.Бенедикт; перевод с английского А.И.Кыржева. – М.: Академический проект, 2000. – 256 с.; Эриксон Э. Детство и общество. – СПб.: ПИТЕР, 2022. – 447 с.; Marcia J.E. Identity and Quality of Life / J.E.Marcia // Journal of Personality and Social Psychology. Reissue ed. – New York: Academic Press, 2011. Vol. 54. – P. 231-245; Мацумото Д. Психология и культура. – СПб.: прайм Еврознак, 2022; Мид М.

Dissertatsiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy talim muassasasining rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Oila va gender” ilmiy tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq JEBL-lO4-sonli “Turli yoshdagi xotin-qizlarning qadriyatlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini nazariy-metodologik hamda empirik jihatdan o‘rganish va olingan ma’lumotlar asosida qadrdon hamda begona madaniyatni konstruktiv qabul qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek migrantlari virtual guruhlaridagi axborotlarning kontent-analizini amalga oshirish asosida, o‘zbek migrantlarida begona madaniyatga moslashuv jarayonida integratsiya va separatsiya kabi akkulturatsiya strategiyalari namoyon bo‘lishi tufayli madaniy identiklik, qadriyatlar oriyentatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarining dinamik o‘zgarishini aniqlash;

shaxs inkulturatsiyasi jarayonida ijtimoiy va etnik muhitning madaniy me’yorlarni o‘zlashtirishdagi, oila va ta’lim muhitining madaniy qadriyatlarni mustahkamlashdagi, ona tilidan foydalanish va etnik identiklikning kognitiv hamda affektiv komponentlarining madaniy mansublikni anglash va his etishda ijtimoiy-psixologik omillar sifatidagi o‘rnini aniqlash;

oilaviy tizimning shaxs inkulturatsiyasidagi ijobiy roli aniqlashtirish, o‘zbek respondentlarda etnik jihatdan aralash oilalar vakillariga nisbatan axloqiy, madaniy-bo‘sh vaqt va milliy-diniy an’analarga amal qilish ko‘rsatkichlari yuqoriligi asosida madaniy tajribani oilada o‘zlashtirishning etnomadaniy xususiyatlarini (qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, turmush tarzi) ochib berish;

inkulturatsiyaning etnik identiklikda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlab, etnik identiklikning kognitiv va affektiv komponentlari oila tarixini bilish, an’anaviylik, konformlik, xavfsizlik va universalizm bilan, mustaqillik va stimulyatsiya bilan manfiy bog‘liqligi, kognitiv komponenti esa hayotiy maqsadlar va erishilgan natijalar muvofiqligi bilan ijobiy bog‘langanligini aniqlash;

O‘zbekistonning ko‘p millatli va o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhiti sharoitida shaxsning madaniy me’yor hamda shaxsiy hamda madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi, o‘z madaniy mansubligini saqlashi hamda yangi madaniy muhitga moslashishini shaxs, oila va ijtimoiy-madaniy muhitning o‘zaro ta’siri orqali tushuntiruvchi inkulturatsiya hamda akkulturatsiyaning integrativ modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari. Tadqiqotda 15 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan 1050 nafar respondentlar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiya

---

Культура и мир детства. – М., 2012. – С. 214; Park R. E. Race and Culture. Reprint ed. – New York: Free Press, 2020. – 403 p.; Parsons T. The Social System. Classic Reprint ed. – London: Forgotten Books, 2016. – 594 p.; Sorokin P.A. The Crisis of Our Age: The Social and Cultural Outlook. Reprint ed. – London; New York: Legare Street Press, 2022. – 338 p.; Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Reason and the Rationalization of Society / J.Habermas; transl. by T. McCarthy. Reissue ed. – Cambridge: Polity Press, 2023. – 465 p.

jarayonlarining ijtimoiy-psixologik omillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kontent analiz; muallif tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma; P.Verjasning “Ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish” metodikasi; G.Soldatovaning “Madaniy qadriyatlar differensiali” metodikasi; Dj.Finnining “Etnik identiklik shkalasi” metodikasi, Sh.Shvarsning “Qadriyatlar tizimini o‘rganish” metodikasi, M.S.Ryabovaning Oila tarixi, jipslik va oilaviy chegaraning o‘tkazuvchanligi metodikasi, N.V.Panina tomonidan moslashtirilgan “Hayotdan qoniqqanlik indeksi” metodikasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek migrantlari virtual guruhlaridagi axborotlarning kontent-analizini amalga oshirish asosida, o‘zbek migrantlarida begona madaniyatga moslashuv jarayonida integratsiya va separatsiya kabi akkulturatsiya strategiyalari namoyon bo‘lishi tufayli madaniy identiklik, qadriyatlar oriyentatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarining dinamik o‘zgarishi aniqlangan;

shaxs inkulturatsiyasi jarayonida ijtimoiy va etnik muhitning madaniy me’yorlarni o‘zlashtirishdagi, oila va ta’lim muhitining madaniy qadriyatlarni mustahkamlashdagi, ona tilidan foydalanish va etnik identiklikning kognitiv hamda affektiv komponentlarining madaniy mansublikni anglash va his etishda ijtimoiy-psixologik omillar sifatidagi o‘rni asoslangan;

oilaviy tizimning shaxs inkulturatsiyasidagi ijobiy roli aniqlashtirilib, o‘zbek respondentlarda etnik jihatdan aralash oilalar vakillariga nisbatan axloqiy, madaniy-bo‘sh vaqt va milliy-diniy an’analarga amal qilish ko‘rsatkichlari yuqoriligi asosida madaniy tajribani oilada o‘zlashtirishning etnomadaniy xususiyatlari (qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, turmush tarzi) ochib berilgan;

inkulturatsiyaning etnik identiklikda namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlanib, etnik identiklikning kognitiv va affektiv komponentlari oila tarixini bilish, an’anaviylik, konformlik, xavfsizlik va universalizm bilan musbat, mustaqillik va stimulyatsiya bilan manfiy bog‘liqligi, kognitiv komponenti esa hayotiy maqsadlar va erishilgan natijalar muvofiqligi bilan ijobiy bog‘langanligi aniqlangan;

O‘zbekistonning ko‘p millatli va o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhiti sharoitida shaxsning madaniy me’yor hamda shaxsiy va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi, o‘z madaniy mansubligini saqlashi hamda yangi madaniy muhitga moslashishini shaxs, oila va ijtimoiy-madaniy muhitning o‘zaro ta’siri orqali tushuntiruvchi inkulturatsiya hamda akkulturatsiyaning integrativ modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamlakatimizda hayot kechiruvchi turli millat vakillarida inkulturatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillardan biri bo‘lgan etnik identifikatsiya bo‘yicha mualliflik ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi ishlab chiqilgan;

turli mamlakatlarda istiqomat qiluvchi o‘zbek migrantlarida inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari kechishining o‘ziga xos jihatlari, akkulturatsiya strategiyalari ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlarni kontent tahlili asosida amalga oshirilgan;

shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash

uchun milliy qadriyatlarni ongli o‘zlashtirish, oilaviy an’analarni davom ettirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va yangi madaniy muhitga moslashish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda foydalanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, tadqiqot vazifalariga muvoffiq, o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan tadqiqot metodlarining qo‘llangani, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilganligi (Kruskal-Uollis N-mezoni, Mann-Uitni U-mezoni, korrelyatsion tahlil) va miqdoriy ko‘rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlik statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsion tadqiqotni amalga oshirish mobaynida to‘plangan va tahlil qilingan nazariy ma’lumotlar inkulturatsiya hamda akkulturatsiya jarayonlari haqida shu kungacha ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyada to‘plangan nazariy ma’lumotlarni yangi tahliliy manbalar bilan boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan yoshlarni milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, buzg‘unchi oqimlarga kirib ketishining oldini olish, ommaviy madaniyat elementlaridan o‘zini o‘zi himoya qilish mexanizmlarini ta’minlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek migrantlari virtual guruhlaridagi axborotlarning kontent-analizini amalga oshirilgan, akkulturatsiya jarayonida madaniy moslashuv, madaniy identiklik, qadriyatlar oriyentatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarining o‘zgarish xususiyatlari aniqlanganligiga doir ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv samaradorligi agentligi qoshidagi rahbar kadrlarni baholash markazi faoliyatiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv samaradorligi agentligi qoshidagi rahbar kadrlarni baholash markazi 2026-yil 06-oktyabrdagi 01-39-son ma’lumotnomasi). Natijadan xorijda o‘qish yoki ishlashni rejalashtirayotgan yoshlar bilan ishlashda: boshqa madaniy muhitga moslashish va o‘z madaniy mansubligini saqlash yuzasidan tushuntirish materiallarini tayyorlashda foydalanildi;

shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillari: ijtimoiy va etnomadaniy muhit, ta’lim muhiti, etnik va madaniy identiklik, til, shaxsiy va madaniy qadriyatlar tizimi, hayotdan qoniqqanlik darajasi hamda oilaviy tizimning shaxs inkulturatsiyasiga ta’siri aniqlanganligi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati faoliyatiga joriy etildi (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati 2026-yil 17-oktyabrdagi 734-son ma’lumotnomasi). Natijadan oila, ta’lim va til muhitining madaniy shakllanishdagi o‘rniga doir xulosalar ma’ruza va suhbat materiallarini tayyorlashga, etnik identiklik hamda qadriyatlar aloqadorligiga oid

natijalar yoshlar bilan o‘tkaziladigan davra suhbatlari mazmunini boyitishga, oilaviy tarix va madaniy davomiylikka doir tavsiyalar ota-onalar hamda yoshlar o‘rtasidagi muloqotga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etishga tatbiq qilindi;

inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlarida shaxsning qadriyatlar tizimi hamda madaniy identikligining shakllanishi va transformatsiyasi psixologik-statistik tahlil asosida ochib berilganligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv samaradorligi agentligi qoshidagi rahbar kadrlarni baholash markazi faoliyatiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv samaradorligi agentligi qoshidagi rahbar kadrlarni baholash markazi 2026-yil 06-oktyabrdagi 01-39-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashda, yangi ta’lim, mehnat yoki madaniy muhitga moslashishda uchraydigan psixologik qiyinchiliklar bo‘yicha tavsiyalar tayyorlashga xizmat qildi;

inkulturatsiya va akkulturatsiyaning shaxsning etnik hamda madaniy identikligi, shaxsiy va madaniy qadriyatlari tizimi, hayotdan qoniqqanlik darajasi hamda oilaviy tizim bilan o‘zaro bog‘liqligi nazariy hamda empirik jihatdan asoslanganligi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati faoliyatiga joriy etildi (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati 2026-yil 17-oktyabrdagi 734-son ma’lumotnomasi). Natijadan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish, madaniy merosga ongli munosabatni shakllantirish, avlodlararo madaniy davomiylikni qo‘llab-quvvatlash hamda turli madaniyat vakillari bilan muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibot materiallarini tayyorlash uchun ilmiy-uslubiy asos sifatida qo‘llanildi;

O‘zbekistonning ko‘p millatli va o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhiti xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxsda ijobiy yechimga yo‘naltirilgan akkulturatsiya hamda samarali inkulturatsiyani ta’minlovchi psixologik shart-sharoitlarni aniqlangan va olingan natijalar asosida shaxs inkulturatsiyasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etilganligi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati faoliyatiga joriy etildi (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati 2026-yil 17-oktyabrdagi 734-son ma’lumotnomasi). Natijada jamiyatning targ‘ibot materiallarida milliy qadriyatlarni anglab o‘zlashtirish, madaniy mansublikni saqlash va boshqa madaniyat vakillariga hurmat masalalarining ijtimoiy-psixologik mazmuni boyitildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jurnallarda 16 ta ilmiy maqola, shulardan 2 tasi xorij nashrlarida, 14 ta OAK tasarrufidagi jurnallarda e’lon qilingan. Xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda 10 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 208 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, obyektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi tavsiflangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Psixologiyada inkulturatsiya va akkulturatsiya muammolari o‘rganilishining nazariy asoslari”** deb nomlanib, akkulturatsiya hamda inkulturatsiya tushunchalarining mohiyati va tuzilishi, akkulturatsiya strategiyalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, etnomadaniy identiklik va uning inkulturatsiya hamda akkulturatsiya mexanizmlari bilan o‘zaro aloqadorligi kabi masalalar tahlil qilingan. Rivojlanish jarayonida shaxs ma’lum ijtimoiy ta’sirlarga ochiq davrlarni boshidan kechiradi va ularni qabul qilishga unda ichki tayyorlik bo‘ladi. Psixologiya fanida insonning jamiyatga kirib borish jarayoni, inson-jamiyat, jamiyat-inson munosabatlari, hayotiy tajriba, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, xulq-atvor normalarining avloddan-avlodga yetkazib berilishi muammosi doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Inkulturatsiya va akkulturatsiya tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Inkulturatsiya – bu rivojlanayotgan shaxslarni dastlabki madaniy kontekst bilan bog‘laydigan jarayondir. “Inkulturatsiya” atamasi 1948-yilda amerikalik madaniy antropolog M.J.Xerskovits tomonidan muomalaga kiritilgan. Taxminan o‘sha vaqtda navaxo madaniyatining taniqli tadqiqotchisi K.Klakxon ma’no jihatdan o‘xshash bo‘lgan “kulturalizatsiya” atamasini kiritdi. Angliya ijtimoiy antropologiyasida shunga o‘xshash jarayonlarni xarakterlash uchun “sotsializatsiya” so‘zi qo‘llanilgan. Amerikaliklar ummon ortidagi hamkasblaridan farqli o‘laroq, o‘z ilmiy izlanishlari markaziga “jamiyat”ni emas, aynan “madaniyat”ni qo‘yganliklarini ta’kidlash uchun yangi kategoriyalardan foydalanishgan. Shu bilan birga, “inkulturatsiya” va “sotsializatsiya” so‘zlari o‘rtasida anqiq chegara o‘tkazilmagan.

Xerskovits va Klakxon ishlarida inkulturatsiya ham madaniyatga kirib borish jarayonini, ham ushbu jarayon natijasini anglatgan.

Inkulturatsiya – bu shaxsning madaniyatga kirib borishi, muayyan odatlar, normalar va xulq-atvor stereotiplarini o‘zlashtirish jarayonidir. Tor ma’noda, zamonaviy madaniyatshunoslikda inkulturatsiya deganda bolaning madaniy norma va qadriyatlarni qabul qilishi tushuniladi. Kengroq tushunchada esa bu jarayon bolalik davri bilan cheklanib qolmay, kattalarning ham madaniy stereotiplarni o‘zlashtirishini o‘z ichiga oladi. Oxirgi holatda ushbu atama yangi madaniy sharoitlarga moslashayotgan immigrantlarga nisbatan qo‘llaniladi. Uning yordamida o‘zga madaniy muhitga kirib borish bilan bog‘liq moslashuvning murakkab jihatlari tasvirlanadi.

“Inkulturatsiya” tushunchasi M.Xerskovits uchun uning yaxlit madaniy-

antropologik konsepsiyasini tuzishda tayanch vazifani o‘tadi. Aynan madaniyatga kirishish jarayonida etnomadaniy jamiyatlarning kelib chiqish hamda u yoki bu jamiyat (madaniyat)ni o‘zgarish mexanizmlari yotadi. V.M.Rozinning ta’kidlashicha, inkulturatsiyada madaniyatning faoliyatli, xulq-atvor tomonlari, shuningdek, ma’naviy madaniyatning turli jabhalarini o‘zlashtirilishi M.Xerskovits konsepsiyasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Inkulturatsiya – bu qadrdon madaniyat bilan birga o‘sish, tarbiyali insonning shakllanishidir. Inkulturatsiya jarayonining natijasi – intelligent – ziyolidir.

Akkulturatsiya – bu shaxsning madaniy kontekst o‘zgarishiga javoban boshidan kechiradigan jarayoni va boshqa madaniyatlar bilan muloqot natijasida sodir bo‘ladigan madaniy o‘zgarishlarning shakllaridan biridir. Akkulturatsion stress moslashuv bilan yakunlanishi kerak. Akkulturatsiyadan keyingi moslashuv ham ikki darajada kechishi mumkin: madaniy guruh va psixologik individual darajada. Individual moslashuv ichki qadr-qimmat hissi, farovonlik tuyg‘usi bilan qayd etiladi. Guruh moslashuvi esa kundalik madaniyatlararo hayotda yangi xulq-atvor kompetensiyalarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Akkulturatsiya to‘g‘risidagi birinchi nazariy fikrlar avstriyalik sotsiolog R.Trunvald, so‘ngra esa ameriklik madaniy antropologlar R.Linton, R.Redfild va M.Xerskovitslar tomonidan keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **Inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari: ijtimoiy-psixologik hamda etnomadaniy omillar, ularning indikatorlari** deb nomlanadi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini jamiyatni yaxlit va strukturalashgan tizim sifatida ko‘rib chiquvchi sotsiomadaniy yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvning sotsiomadaniy mohiyatini P.Sorokin o‘zining “Jamiyat, madaniyat va shaxs: ularning strukturasi va dinamikasi” kitobida yorqin ifodalab bergan. Sotsiomadaniy hodisalarning “tub strukturasi”ni qat’iy tahlil qilar ekan, u tahlil natijalarini yaxlit bir formulaga jamlaydi: “Shaxs, jamiyat va madaniyat ajralmas triada sifatida”. Ushbu triadada poydevor qiluvchi asosiy komponent sifatida madaniyat namoyon bo‘ladi. Madaniyat – bu bir kishi tomonidan emas, balki barcha tomonidan tushunilgan va qabul qilingan ramzlar, belgilar hamda g‘oyalardir. Madaniyat – bu har doim odamlarning o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan ijtimoiy fenomendir. Madaniyat – bu har doim guruh, jamoa va jamiyatda qabul qilingan standart hamda namuna bo‘lib, uning sharofati bilan Subyektning ijtimoiy xulq-atvorini oldindan ko‘ra bilish imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, tadqiqotning metodologik asoslarini determinizm prinsipi (S.L.Rubinshteyn, tarixiy-madaniy konsepsiya (L.S.Vigotskiy, guruhlararo munosabatlar psixologiyasi (V.Ageyev, N.Lebedeva, A.Leontyev, Y.Platonov, L.Pochebut, S.Rijova, G.Soldatova, G.Starovoytova, T.Stefanenko), psixologiyada qiyosiy-madaniy yondashuv prinsipi (Dj.Xofsted, G.Triandis); ijtimoiy aynanlik prinsipi (G.Tedjfel, Dj.Terner) tashkil etdi.

Tadqiqotimizning birinchi bosqichida biz kontent-analiz metodidan foydalangan holda ijtimoiy tarmoqlardagi va o‘zbek migrantlarining telegram guruhlaridagi ma’lumotlarning kontent tahlilini amalga oshirdik. Shuningdek internet tarmoqlaridagi habarlar, gazeta va jurnallardagi o‘zbek migrantlari haqidagi

ma’lumotlarni tahlil etish asosida migrantlardagi inkulturatsiya jarayonlarining kechishi hamda akkulturatsiya strategiyalari tahlil etilgan.

Kontent analiz Rossiya, AQSH, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Kanada va Yaponiya misolida amalga oshirildi. Asosiy axborot materiallarini 2021-2026-yillarda internet OAVda e’lon qilingan materiallar tashkil qildi. Ayrim mamlakatlarda OAV materiallari kam bo‘lgani sababli ilmiy jurnallar va o‘zbek diaspora tashkilotlarining ochiq materiallari kontekstual manba sifatida qo‘llanildi. Kontent-tahlil o‘zbek migrantlarining akkulturatsiyasi mamlakatning madaniy yaqinligi bilangina belgilanmasligini ko‘rsatadi. Rossiya va Turkiya til yoki tarixiy-madaniy jihatdan nisbatan yaqin bo‘lsa ham, huquqiy himoyaning zaifligi va ijtimoiy stigmatizatsiya integratsiyani cheklaydi. Germaniya, Kanada hamda qisman AQShda madaniy masofa kattaroq, ammo qonuniy institutlar va jamoat tashkilotlari integratsiya uchun barqarorroq imkoniyat yaratadi.

Eng maqbul natija o‘z madaniyatini yo‘qotish yoki qabul qiluvchi jamiyatdan ajralib qolish emas, balki ikki tomonlama kompetentlikdir: migrant o‘zbek tili, milliy qadriyatlari va etnik mansubligini saqlagan holda, qabul qiluvchi mamlakat tili, qonunlari va ijtimoiy munosabatlarida erkin harakat qila olishi zarur. Ana shu holat psixologik barqarorlik, hayotdan qoniqish va ijobiy etnik identiklik uchun eng qulay integratsion model hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **Shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillarning empirik tahlili** deb nomlanib shaxsda inkulturatsiya jarayonida shakllanuvchi o‘z madaniyati haqidagi ijtimoiy tasavvurlar tuzilmasining qiyosiy tahlili, etnik identiklik komponentlari shakillanganligining shaxs inkulturatsiyasiga ta’siri, shaxsning madaniy va shaxsiy qadriyatlar tizimining ijtimoiy-psixologik tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqotimizda biz o‘zimiz ishlab chiqqan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomadan foydalandik. Mazkur so‘rovnomani o‘tkazishdan maqsad aholining o‘z madaniy urf-odat, an’analari, qadriyatlariga munosabati, ularni saqlab qolish qolish va avloddan-avlodga yetkazish borasidagi qarashlari, insonni qadrdon madaniyatini bilishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, tadqiqotimizning maqsadi shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent shahrida yashovchi 15 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan jami 1050 ta shundan 579 ta respondentlarning blankalari barcha metodikalar bo‘yicha to‘liq to‘ldirilgan va topshirilgan qolgan respondentlarning asosan so‘rovnomadagi javoblari inobatga olingan. Respondentlarning 311 nafari erkakalarni 268 nafari esa ayollarni tashkil etadi. Yosh ko‘rsatkichlari bo‘yicha esa o‘spirinlar 204 nafarni, ilk yetuklik davridagi respondentlarimiz 179 nafarni va o‘rta yetuklik davridagi respondentlarimiz esa 190 nafarni tashkil etdi. Qolgan so‘rovnomada ishtirok etgan 471 nafar respondentlarimizning esa 234 nafarini erkaklar, 237 nafarini ayollar tashkil etdi. Shulardan 197 nafarini o‘spirinlar, 146 nafarini ilk yetuklik davridagi respondentlarimiz va 128 nafarini o‘rta yetuklik davridagi respondentlar tashkil qildi. Shuningdek, tadqiqotimizda respondentlarning 347 nafari o‘zbek millati vakillari bo‘lsalar, 232 nafarini ota yoki onasi boshqa millat vakili bo‘lgan metislar

tashkil etdi. Katta avlod vakillari turli xil kasb egalari bo‘lib, bunda biz o‘qituvchidan tortib, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi sinaluvchilarni kuzatishimiz mumkin. Respondentlar mamlakatimizning turli hududlarida istiqomat qiladilar.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda biz respondentlarning qaysi tilda doimiy so‘zlashuviga ham alohida e’tibor qaratdik. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘zbek millatiga mansub respondentlarning 84 %i uyda o‘zbek, 14,7 %i rus va 1,3 %i ingliz tilida so‘zlashadi. Ularning 69,5 %i maktabda o‘zbek, 30,5 %i esa rus tilida ta’lim olgan.

Mualliflik ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi natijalari respondentlarda milliy madaniyatni saqlashga intilish bilan birga madaniyatlararo ochiqlik ham mavjudligini ko‘rsatdi: ishtirokchilarning 91,9 %i mamlakatimizda madaniyatlar va tillar xilma-xilligi uchun imkoniyatlar mavjudligini e’tirof etgan, 68,9 %i milliy normalar, an’ana va qadriyatlarni tashqi ta’sirlardan himoyalash zarurligini bildirgan, 65,6 %i esa madaniy aynanlikni yo‘qotishdan xavotirlangan. Ayni paytda, respondentlarning 96,7 %i chet tillarini o‘rganish milliy qadriyatlarning unutilishiga olib keladi, degan fikrni rad etgan. Milliy madaniyatni asrashning muhim omillari sifatida din, ona tili, urf-odat va an’analar hamda ta’lim-tarbiya qayd etilgan. Shu bilan birga, ishtirokchilar dabdababozlik (38,8 %), ayollarni kamsitish (27 %), to‘y marosimlaridagi ortiqcha udumlar (12,1 %) va ota-onalarning farzandlar hayotiga aralashuvi (8,4 %) kabi holatlardan voz kechish zarurligini bildirganlar. Mazkur natijalar milliy madaniy aynanlikni saqlashga yo‘nalganlik madaniy tajribani tanqidiy baholash va yangilanishga ochiqlik bilan uyg‘unlashishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida biz shaxsda inkulturatsiya jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun respondentlarning o‘z madaniyati haqidagi ijtimoiy tasavvurlar tuzilmasi va uning xususiyatlarini aniqlashga harakat qildik. Ijtimoiy tasavvurlar tuzilmasini aniqlash uchun P.Verjes metodikasini qo‘lladik. P.Verjesning ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish metodikasining birinchi bosqichida respondentlar “o‘z xalqlarining ananalari urf-odatlari va xulq atvor normalari”ni o‘zlarida yuzaga kelgan assotsiatsiyalardan kelib chiqib o‘z xalqlarining namoyondasi nuqtai nazaridan baholaganlar.

1-jadval.

Respondentlarda “o‘z xalqlarining an’analari urf-odatlari va xulq-atvor normalari”ni o‘zlarida yuzaga kelgan assotsiatsiyalardan kelib chiqib o‘z xalqlarining namoyondasi nuqtayi nazaridan baholash bo‘yicha P.Verjas metodikasidan olingan natijalar quyidagicha:

	Tushunchaning past rangi (<o‘rtacha rangdan)	**Tushunchaning yuqori rangi (>=o‘rtacha rangdan)**
Tushunchaning yuqori chastotasi (>=chastota medianasidan)	Milliy kiyimlar (atlas, adras, do‘ppi, ro‘mol) ota-onaga hurmat, milliy taomlar (osh, norin)	Mahalla, paxta, choyxona, sumalak, samimiylik, mehmondo‘stlik, ibo-hayo, bag‘rikenglik, sarpo, ertalabki osh, keng dala
Tushunchaning past chastotasi (< chastota medianasidan)	To‘y, bayramlar (to‘y, Navro‘z, Hayit bayramlari)	Mehr, quda-andachilik, oqibat, halollik, hashar, milliy o‘yinlar, sovchilik

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek, respondentlarda o‘z madaniyati haqidagi tasavvurlar yadrosida milliy kiyimlar (atlas, adras, do‘ppi), ota-onaga hurmat, milliy taomlar (osh) tushunchalari turibti. 2-3 sohada esa, ya’ni ijtimoiy tasavvurlarning yaqin periferik zonasida bayramlar bilan bog‘liq marosimlar – to‘y, Navro‘z bayrami, Hayit bayramlari hamda mahalla, paxta, choyxona, sumalak, samimiylik, mehmondo‘stlik, ibo-hayo, bag‘rikenglik, sarpo, ertalabki osh, keng dala tushunchalari o‘rin egallagan. Shuningdek, ijtimoiy tasavvurlarning uzoq periferiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu sohaga quda-andachilik, mehr-oqibat, halollik, milliy o‘yinlar, hashar, sovchilik tushunchalari kiritilgan.

Metodikaning keyingi bosqichida respondentlardan “o‘z xalqlarining ananalari urf-odatlari va xulq atvor normalari”ni tengdoshlarining katta qismi nuqtai nazaridan baholash so‘raldi hamda undan quyidagi natijalar olindi.

2-jadval.

Respondentlarda “o‘z xalqlarining an’analari urf-odatlari va xulq-atvor normalari”ni tengdoshlarining katta qismi nuqtayi nazaridan baholash bo‘yicha P.Verjas metodikasidan olingan natijalar quyidagicha:

	Tushunchaning past rangi (<o‘rtacha rangdan)	**Tushunchaning yuqori rangi (>=o‘rtacha rangdan)**
Tushunchaning yuqori chastotasi (>=chastota medianasidan)	To‘y, choyxona, osh, ro‘mol, cho‘pon, atlas, adras.	Sumalak, samimiylik, mehmondo‘stlik, sarpo, ertalabki osh, keng dala
Tushunchaning past chastotasi (< chastota medianasidan)	Mahalla, bayramlar (to‘y, Navro‘z, Hayit bayramlari)	paxta, quda-andachilik, oqibat, halollik, hashar

Bu bosqichda respondentlar o‘z tasavvurlarida tengdoshlari milliy madaniyatlarini qanday tushunchalar orqali idrok etishlarini yoritishlari lozim. Bu holatda tasavvurlar yadrosini to‘y, choyxona, osh, ro‘mol, cho‘pon, atlas, adras kabi tushunchalar tashkil etdi. Tasavvurlarning uzoq pereferik zonasini esa paxta, quda-andachilik, oqibat, halollik, hashar kabi tushunchalar egalladi.

3-jadval.

Respondentlarda “o‘z xalqlarining an’analari urf-odatlari va xulq-atvor normalari”ni katta avlod vakillari, ota-onalarining katta qismi nuqtayi nazaridan baholash bo‘yicha P.Verjes metodikasi bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha:

	Tushunchaning past rangi (<o‘rtacha rangdan)	**Tushunchaning yuqori rangi (>=o‘rtacha rangdan)**
Tushunchaning yuqori chastotasi (>=chastota medianasidan)	Kattalarga hurmat, ota-onani e’zozlash, quda-andachilik, qarindoshchilik	Mahalla, mehmondo‘stlik, ertalabki osh
Tushunchaning past chastotasi (< chastota medianasidan)	Bayramlar (to‘y, Navro‘z, Hayit bayramlari)	Paxta, oqibat, halollik, hashar

Respondentlardan “o‘z xalqlarining ananalari urf-odatlari va xulq-atvor normalari”ni katta avlod vakillari, ota-onalarining katta qismi nuqtayi nazaridan baholash so‘ralganida natijalar quyidagicha o‘z ifodasini topdi. Bunda tasavvurlar yadrosini kattalarga hurmat, ota-onani e’zozlash, quda-andachilik, qarindoshchilik

kabi tushunchalar tashkil etib, yaqin zonasini esa, bayramlar (Navro‘z, Hayit bayramlari), to‘y kabi tushunchalar tashkil etdi.

4-jadval.

Respondentlarda “o‘z xalqlarining an’analari urf-odatlari va xulq-atvor normalari”ni OAVda (televideniye, radio, gazeta, jurnallar, video va kinofilmlar, kliplar, internet) bu mavzuning yoritilishi nuqtayi nazaridan baholash bo‘yicha P.Verjas metodikasi bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha:

	Tushunchaning past rangi (<o‘rtacha rangdan)	**Tushunchaning yuqori rangi (>=o‘rtacha rangdan)**
Tushunchaning yuqori chastotasi (>=chastota medianasidan)	Qaynona-kelin, er-hotin munosabati, oila, milliy taomlar, to‘y	Mahalla, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat
Tushunchaning past chastotasi (< chastota medianasidan)	Bayramlar (to‘y, Navro‘z, Hayit bayramlari)	Oqibat, halollik, hashar

Keyingi o‘rinda biz respondentlardan “o‘z xalqlarining ananalari urf-odatlari va xulq atvor normalari”ni OAVda (televideniye, radio, gazeta, jurnallar, video va kinofilmlar, kliplar, internet) bu mavzuning yoritilishi nuqtayi nazaridan baholashlarini so‘radik. Ushbu berilgan topshiriqga ham respondentlardan o‘ziga xos javoblarni oldik. Bunda respondentlarning tasavvurlar yadrosini qaynona-kelin, er-hotin munosabati, oila, milliy taomlar, to‘y yaqin pereferik zonani bayramlar tushunchalari egallagan bo‘lsa, uzoq pereferik zonani esa, mahalla, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, oqibat, halollik, hashar kabi tushunchalar egalladi.

Keyingi bosqichida biz Dj.Finni tomonidan ishlab chiqilgan Etnik identiklik shkalasi metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika etnik identifikatsiya (aynanlashtirish)ning namoyon bo‘lishini o‘rganadi.



1-rasm. Dj.Finni metodikasi bo‘yicha turli yosh guruhlarida olingan natijalar tahlili.

O‘spirinlik davridagi respondentlarda ishonchli farqlar kuzatilgan. Ularda ayni davrda kognitiv shkalaning o‘rtacha ko‘rsatkichlari 212,49ni tashkil etgan bo‘lsa, affektif shkala esa 133,66 ni tashkil qiladi. Bu o‘spirin respondentlarimizda etnik identiklikning kognitiv shkalasi affektiv shkalaga nisbatan yaxshiroq rivojlanganini ko‘rsatadi. Ilk yetuklik davridagi respondentlarimizda esa etnik

identiklikning kognitiv va affektiv shkalalari bo‘yicha natijalari o‘spirinlarnikidan yuqoriroqligini kuzatamiz. Kognitiv shkala bo‘yicha olingan o‘rtacha natijalar 272,74ni tashkil etgan bo‘lsa, affektiv shkala bo‘yicha esa bu ko‘rsatkich 262,83ni tashkil qilgan.

O‘rta yetuklik davrini boshidan kechirayotgan 40 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan respondentlarimizda esa kognitiv va affektiv komponentlardagi dinamik o‘sish holatini ko‘ramiz. O‘spirinlar va ilk yetuklik davridagi respondentlarimizdan farqli ravishda ularda kognitiv komponent bilan bir qatorda etnik identiklikning affektiv komponenti ham yuqori darajada shakillanganligini ko‘ramiz. O‘rta yetuklik davridagi respondentlarimizning kognitiv komponent bo‘yicha ko‘rsatkichlari 384,88 ni tashkil qilgan bo‘lsa, affektiv komponent bo‘yicha ko‘rsatkich 478,46 ni namoyon etadi.

Ushbu metodika bo‘yicha ishonchli farqlar, shuningdek, jins ko‘rsatkichlarida ham o‘z ifodasini topdi.



2-rasm. Dj.Finni metodikasi bo‘yicha erkak va ayollardan olingan natijalar tahlili.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, erkaklarda etnik identiklikning kognitiv komponenti 379,35ni, affektiv komponent esa, 236,09ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich erkaklarda etnik identiklikning kognitiv komponenti yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ayollarda esa aksincha, affektiv komponentning yuqori darajada namoyon bo‘lganligini kuzatamiz. Ayollarda etnik identiklikning o‘rtacha ko‘rsatkichlari 186,31ni tashkil etgan bo‘lsa, affektiv komponent esa 352,56ni tashkil etgan. Bu esa ayollarda o‘z madaniyatiga mansublik hissi emotsional munosabati va o‘z madaniyatiga bog‘liqligi darajasi yuqoriligining yorqin ifodasidir.

Tadqiqotning beshinchi bosqichida respondentlarimizning madaniy qadriyatlarini aniqlash uchun G.Soldatova tomonidan ishlab chiqilgan “Madaniy qadriyatlar differensiali” metodikasini taqdim etdik. Madaniyatni psixologik universal o‘lchash doirasidagi qadriyatlar yo‘nalishlarini aniqlashga mo‘ljallangan mazkur test bir necha shkalalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodika bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi.



3-rasm. G.Soldatovaning “Madaniy qadriyatlar differensiali” metodikasi natijalari tahlili.

Rasmdan ko‘rib turganimizdek, ushbu metodika bo‘yicha o‘zaro ta’sirga berilish-o‘zaro ta’sirdan qochish shkalasi bo‘yicha eng yuqori natija 15,99 qayd etilgan. Mazkur natija respondentlar uchun tinchliksevarlik, samimiylik, murosaga kelish va guruh a’zolari bilan kelishilgan holda harakat qilish kabi qadriyatlarning nisbatan muhim ekanini bildiradi. Ular ijtimoiy munosabatlardan butunlay chetlashishga yoki o‘zaro ta’sirni rad etishga moyil emaslar. Shu bilan birga, 15,99 ball maksimal ko‘rsatkichga yaqin emasligi sababli, o‘zaro ta’sirga yo‘nalganlik yuqori emas, balki mo‘tadil darajada shakllangan, deb baholanishi maqsadga muvofiq. Demak, ayrim vaziyatlarda respondentlar ochiq hamkorlik va murosani tanlasalar, raqobat, ehtiyotkorlik yoki psixologik masofani saqlash tendensiyalari ham namoyon bo‘lishi mumkin.

“Kuchli ijtimoiy nazorat – zaif ijtimoiy nazorat” shkalasi bo‘yicha respondentlarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi 15,24 ballni tashkil etdi. Mazkur shkala jamiyatdagi taqiqlovchi va tartibga soluvchi me’yorlarga bo‘ysunish hamda hokimiyat va ijtimoiy institutlar obro‘sining ahamiyatini ifodalaydi. “Kelajakka yo‘nalganlik” shkalasi bo‘yicha respondentlarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi 10,78 ballni tashkil etdi. Mazkur natija respondentlarning faoliyatida uzoq muddatli istiqboldan ko‘ra bugungi kun ehtiyojlari, mavjud sharoit va an’anaviy tajribaga tayanish tendensiyasi nisbatan ustunligini anglatishi mumkin. Ular kelajak bilan bog‘liq noaniqlik va tavakkalchilikka ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lib, yangi sharoitlarga tez kirishishdan ko‘ra sinalgan faoliyat usullarini saqlashni afzal ko‘rishlari ehtimol. Biroq 10,78 ball kelajakka yo‘nalganlikning butunlay mavjud emasligini emas, balki uning past-o‘rta darajada namoyon bo‘lganini bildiradi.

“Guruhga yo‘nalganlik – o‘z-o‘ziga yo‘nalganlik” shkalasi bo‘yicha respondentlarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi 10,32 ballni tashkil etdi. Mazkur natija respondentlarning o‘z fikri, shaxsiy maqsadlari va individual manfaatlariga tayanishi, mustaqil faoliyat yuritishi hamda guruh bosimiga to‘liq bo‘ysunmaslikka moyilligini anglatadi. “O‘zgarishlarga ochiqlik – o‘zgarishlarga yopiqlik” shkalasi bo‘yicha respondentlarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichi 5,26 ballni tashkil etdi. Mazkur natija shkalaning nazariy o‘rta qiymatidan ancha past bo‘lib, respondentlarda o‘zgarishlarga yopiqlik va yangiliklarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish tendensiyasi ustunligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida biz Sh.Shvarsning Qadriyatlar yo‘nalishlari metodikasidan foydalandik va metodikadan olingan natijalar quyidagicha bo‘ldi.



4-rasm. Sh.Shvarsning Qadriyatlar yo‘nalishlari metodikasidan olingan natijalarning yosh bo‘yicha tahlili.

Ko‘rib turganimizdek, o‘spirinlarda erishganlik, stimulyatsiya, mustaqillik shkalalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqoriligini kuzatamiz. Erishganlik shkalasi bo‘yicha o‘rtach ko‘rsatkich 387,65 ni tashkil etgan bo‘lsa, stimulyatsiya shkalasi bo‘yicha 343,61ni, mustaqillik shkalasi bo‘yicha esa o‘rtacha ko‘rsatkich 454,93ni tashkil etgan Bu o‘spirin respondentlarimizning fikrlash va harakatlarda mustaqillik, ijodkorlik, erkinlik va yangi narsalarni o‘rganishga intilish, yangilikka, kuchli hissiy kechinmalarga va hayotdagi o‘zgarishlarga intilish, ijtimoiy standartlarga muvofiq kompetentlikni namoyon etish orqali shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga intilishlarini ko‘rsatadi.

Ilk yetuklik davrida bo‘lgan respondentlarimizdan esa biz quyidagi ahamiyatli natijalarni oldik. Respondentlarimizda o‘rtacha ko‘rsatkich bo‘yicha hukmronlik, gedonizm va stimulyatsiya shkalalari bo‘yicha yuqori natijalar nomoyon bo‘lgan bo‘lib, hukmronlik shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 466,04 ni, gedonizm bo‘yicha 351,64 ni va stimulyatsiya shkalasi bo‘yicha 339,95 ni tashkil etdi

Shvarts metodikasi bo‘yicha yetuklik davridagi respondentlarimizda olingan natijalar tahlili quyidagicha bo‘ldi. Yetuklik davrida boshqa yosh guruhlariga nisbatan ahamiyatli ko‘rsatkichlar unversalizm shkalasi bo‘yicha 354,56 ni, mexribonlik shkalasi bo‘yicha 350,98 ni, an’analar shkalasi bo‘yicha 474,52 ni, konformlik shkalasi bo‘yicha, 422,77 ni, xavfsizlik shkalasi bo‘yicha esa 472,63 ni tashkil etdi. Bu natijalar shuni anglatadiki, respondentlarimiz jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda va o‘zlarida barqarorlikka intiladilar, boshqalarga zarar yetkazishi yoki ijtimoiy meyorlarni buzishi mumkin bo‘lgan xatti-harakat va impulslarni cheklashga harakat qiladilar, madaniyat yoki dinda shakllangan urf-odatlar, an’analar va g‘oyalarni hurmat qiladilar hamda qabul qiladilar, yaqin insonlarning farovonligini saqlash va oshirishga intiladilar, barcha insonlar uchun adolat va tenglik bo‘lishini hohlaydilar.

Ushbu metodika bo‘yicha ahamiyatli farqlarni, shuningdek, erkak va ayollarda ham kuzatdik.



5-rasm. Sh.Shvarsning Qadriyatlar yo‘nalishlari metodikasidan olingan natijalarning jins bo‘yicha tahlili.

Kuzatganimizdek, erkaklarda ushbu metodika bo‘yicha hukmronlik, erishganlik shkalalri bo‘yicha yuqori natijalar kuzatilgan. Bu erkaklarda muvafaqqiyatga intilish va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, yuqori mavqeni egallash, boshqalar ustida xukmronlik o‘rnatish ustunlik qilishini anglatadi. Erkaklarda hukmronlik shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 333,15 ni, erishganlik shkalasi bo‘yicha esa 335,27 ni tashkil qilgan. Ayollarda esa ahamiyatli farqlar mehribonlik va xavfsizlik shkalalarida namoyon bo‘ldi. Mexribonlik shkalasi bo‘yicha ayol respondentlarimizning o‘rtacha ballari 381,98 ni, xavfsizlik shkalasi bo‘yicha esa 336,93 ni tashkil etdi. Bu ayollarning yaqin insonlarining farovonligini saqlashga va munosabatlarda barqarorlikka intilishlarini ko‘rsatadi.

“Oila va hayotdan qoniqqanlik inkulturatsiya hamda akkulturatsiyaning ijtimoiy omili sifatida” deb nomlangan dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida oila tarixi, jipslik va oilaviy chegaraning o‘tkazuvchanligi metodikasi natijalarining tahlili amalga oshirilgan, inkulturatsiya va hayotdan qoniqqanlik darajasi o‘rtasidagi aloqadorlik aniqlangan, shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillarining integrativ modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida biz inkulturatsiya va akkulturatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida oilani belgilagan holda oilaviy an’analar hamda munosabatlarning shaxs inkulturatsiyasi va akkulturatsiyasiga ta’sirini o‘rganishga urinib ko‘rdik buning uchun biz M.S.Ryabova tomonidan ishlab chiqilgan “Oila tarixi, jipslik va oilaviy chegaralarning o‘tkazuvchanligi” metodikasidan foydalandik.

Metodikaning 10-savolida respondentlardan ota-ona va ular tarafdan bo‘lgan qarindoshlardan qaysi biriga o‘zlarini ko‘proq o‘xshatisjlari so‘ralgan. Respondentlarning katta qismi o‘zlarini otalariga va ularning qarindoshlariga o‘xshatganlar. Buni o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos xususiyat milliy va duniy an’analarimiz bilan izohlash mumkin. Odatda, o‘zbek xalqida nasl-nasabning ota tarafidan belgilanishi kuzatiladi.



6-rasm. Ota-onangiz va buvi-buvangiz oilasidan kimga ko‘proq o‘zingizni o‘xshatasiz (Sizga ko‘pincha ushbu oilangiz a’zosiga o‘xshashingizni aytishadi yoki u ko‘proq sizga yaqin, sizga yoqadi) savoliga respondentlarning javoblari.

Tadqiqotimizning so‘ngi bosqichida biz respondentlarimizga N.V.Paninaning “Hayotdan qoniqqanlik indeksi” metodikasini taqdim etdik. Ushbu metodika bo‘yicha olingan natijalarda jins ko‘rsatkichlari bo‘yicha hamda, o‘zbeklar va metis respondentlardan olingan natijalarda ahamiyatli farqlar aniqlandi.

5-jadval.

N.V.Paninaning “Hayotdan qoniqqanlik indeksi” metodikasining jins xususiyatlari bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari tahlili

	Jins xususiyatlari bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari			
	Erkaklar (n=211)	Ayollar (n=168)	U	P
Hayotga qiziqish	297,28	281,55	39409,500	,239
Maqsadlarga erishishdagi izchillik	298,64	279,97	38985,500	,167
Qo‘yilgan va erishilgan maqsadlar o‘rtasidagi muvofiqlik	308,94	268,03	35785,000	,003**
O‘zini va o‘z xatti harakatlarini ijobiy baholash	309,62	267,24	35573,500	,002*
Kayfiyatning umumiy emotsional foni	302,43	275,58	37808,500	,048*
Umumiy shkala	307,48	269,71	36237,500	,007*

Ko‘rishimiz mumkinki, erkaklarda qo‘yilgan va erishilgan maqsadlar o‘rtasidagi muvofiqlik, o‘zini va o‘z xatti harakatlarini ijobiy baholash, kayfiyatning umumiy emotsional foni va umumiy shkalalar bo‘yicha yuqori natijalar qayd etilgan. Qo‘yilgan va erishilgan maqsadlar o‘rtasidagi muvofiqlik shkalasi bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha ko‘rsatkich 308,94 ni ayollarda esa 268,03 ni tashkil qilgan. Bu natija erkaklar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan hayotiy maqsadlarga erishganliklarini yoki kelajakda ularga erishish imkoniyatlarini nisbatan yuqori baholashlarini ko‘rsatadi. O‘zini va o‘z xatti harakatlarini ijobiy baholash shkalasida erkaklardagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar 309,62 ni, ayollarda esa 267,24 ni tashkil etdi.

Bu erkaklarning o‘z shaxsiy sifatlari, qabul qilgan qarorlari, amalga oshirgan ishlari va bosib o‘tgan hayot yo‘lini nisbatan ijobiy baholashga moyilligini ko‘rsatadi.

Navbatdagi ahamiyatli farqlar kayfiyatning umumiy emotsional foni shkalasida ham aniqlangan bo‘lib, erkaklarda o‘rtacha ko‘rsatkich 302,43 ni, ayollarda esa 275,58ni tashkil etdi.

6-jadval.

N.V.Paninaning “Hayotdan qoniqqanlik indeksi” metodikasining o‘zbek va metis guruhlari bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari tahlili

	O‘rtacha rang ko‘rsatkichlari			
	O‘zbek (n=347)	Metis (n=232)	U	P
Hayotga qiziqish	273,15	316,52	34331,500	,001***
Maqsadlarga erishishdagi izchillik	287,33	295,26	39264,500	,565
Qo‘yilgan va erishilgan maqsadlar o‘rtasiidagi muvofiqlik	285,77	297,60	38721,500	,393
O‘zini va o‘z xatti hara-katlarini ijobiy baholash	271,58	318,89	33782,500	,001***
Kayfiyatning umumiy emotsional foni	281,21	304,43	37136,000	,094
Umumiy shkala	275,83	312,50	35264,500	,010**

Metislar ushbu metodikaning hayotga qiziqish, o‘zini va o‘z xatti harakatlarini ijobiy baholash hamda umumiy shkalalar bo‘yicha yuqori natijani namoyon etganlar. Hayotga qiziqish shkalasi boyicha o‘zbeklar 273,15 ko‘rsatkichni, metislar esa 316,52 o‘rtacha ko‘rsatkichini qayd etganlar. O‘zini va o‘z xatti-harakatlarini ijobiy baholash bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar o‘zbeklarda 271,58 ni, metislarda esa 318,89 ni tashkil etgan. Umumiy shkala bo‘yicha esa bu ko‘rsatkichlar o‘zbeklarda 275,83, metislarda 312,50 ko‘rsatkichiga ega.

Olingan natijalar asosida biz korrelyatsion tadqiqotni amalga oshirdik va quyidagi natijalarni qo‘lga kiritdik.

Korrelyatsion aloqadorlik Dj.Finnining “Etnik identifikatsiyani o‘rganish metodikasi” va M.S.Ryabovaning “Oila tarixi, jipslik va oilaviy chegaraning o‘tkazuvchanligi” metodikasi o‘rtasida ham aniqlandi.

7-jadval.

Dj.Finnining “Etnik identifikatsiyani o‘rganish metodikasi” va M.S.Ryabovaning “Oila tarixi, jipslik va oilaviy chegaraning o‘tkazuvchanligi” metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik

Shkalalar	**Umumiy**	**Oila tarixini bilish**	**Oilaviy chegaralarning o‘tkazuvchanligi**	**Mehnat an'analari**
Kognitiv shkala	,076	,205(**)	,088(*)	,100(*)
Affektiv shkala	-,070	,350(**)	-,066	-,005

Dj.Finnining “Etnik identifikatsiyani o‘rganish metodikasi”ning kognitiv shkalasi hamda Sh.Shvarsning “Qadriyatlar yo‘nalishlari” metodikasi unversalizm va an’analar shkalasi bo‘yicha ijobiy aloqadorlik aniqlangan bo‘lsa, stimulyatsiya, mustaqillik va mehribonlik shkalalari bilan salbiy korrelyatsion aloqadorlik aniqlangan.

8-jadval.

Dj.Finnining “Etnik identifikatsiyani o‘rganish metodikasi” va Sh.Shvarsning “Qadriyatlar yo‘nalishlari” metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik.

Shkalalar	Stimulyatsiya	Mustaqillik	Universalizm	Mexribonlik shkalasi	An'analar
Kognitiv shkala	-,183(**)	-,346(**)	,109(**)	-,199(**)	,409(**)
Affektiv shkala	-,357(**)	-,694(**)	,235(**)	,439(**)	,711(**)
Xukmronlik	,106(*)	-,341(**)	,033	-,063	-,022
Erishganlik	,433(**)	,611(**)	-,178(**)	-,467(**)	-,626(**)
Gedonizm	,215(**)	,155(**)	,046	-,237(**)	-,187(**)

Dj.Finnining “Etnik identifikatsiyani o‘rganish metodikasi”ning affektiv shkalasi hamda Sh.Shvarsning “Qadriyatlar yo‘nalishlari metodikasi”ning unversalizm, mehribonlik, an’analar shkalalari bo‘yicha ijobiy korrelyatsion aloqadorlik aniqlangan bo‘lsa, stimulyatsiya va mustaqillik shkalalari bilan esa salbiy korrelyatsion aloqadorlik aniqlangan.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrativ model shaxs va madaniy muhitning o‘zaro ta’sirini inkulturatsiya hamda akkulturatsiya jarayonlarining yagona tizimi sifatida tushuntirishga qaratilgan. Modelning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, shaxs madaniyatning faqat passiv qabul qiluvchisi emas, balki madaniy mazmunlarni tanlaydigan, o‘zlashtiradigan, qayta talqin qiladigan va keyingi avlodlarga uzatadigan faol subyektdir. Madaniy muhit ham shaxsga bir tomonlama ta’sir ko‘rsatmaydi: shaxsning yoshi, hayotiy tajribasi, tili, qadriyatlari, oilaviy tarbiyasi va ijtimoiy aloqalari madaniy ta’sirning mazmuni hamda natijasini o‘zgartiradi. Shu sababli, modelda inkulturatsiya va akkulturatsiya parallel, o‘zaro bog‘liq, lekin psixologik vazifalari va mexanizmlari jihatidan farqlanuvchi jarayonlar sifatida ko‘rsatilgan.

O‘tkazilgan natijalar asosida biz shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillari integrativ modelini ishlab chiqdik. Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida shakllantirilgan majmuaviy konsepsiya inson va uni qurshab turgan muhit o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni inkulturatsiya hamda akkulturatsiyaning yaxlit bir tizimi sifatida ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning eng muhim negizi shundaki, unda inson shaxsi madaniyatni shunchaki jimgina qabul qiluvchi passiv ijrochi emas, balki muayyan madaniy unsurlarni saralaydigan, o‘zlashtiradiigan, boyitadigan va kelgusi avlod vakillariga meros qilib qoldiradigan faol harakatlantiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, insonning yoshi, orttirgan tajribasi, so‘zlashuv tili, shaxsiy e’tiqodi, oilaviy tarbiya muhiti va ijtimoiy munosabatlari madaniy ta’sirning mohiyatini belgilab beradi. Shuning uchun ham modelda inkulturatsiya va akkulturatsiya birgalikda, o‘zaro aloqador, lekin psixologik vazifalari va mexanizmlari jihatidan bir-biridan farqlanuvchi jarayonlar sifatida ilgari suriladi.



7-rasm. Shaxsda inkulturatsiya va akkulturatsiyaning ijtimoiy-psixologik omillari integrativ modeli

XULOSA

Olingan natijalar inkulturatsiya va akkulturatsiyani bir-biridan uzilgan jarayonlar sifatida emas, balki shaxs va madaniy muhit o‘rtasidagi uzluksiz, ikki tomonlama hamda dinamik munosabatning tarkibiy qismlari sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Tadqiqotimiz natijalari bo‘yicha biz quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Shaxsning dastlabki madaniy tajribasi yangi madaniy muhitda moslashuv strategiyalarini tanlashlarida namoyon bo‘ladi, inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari esa o‘zaro bog‘liq xisoblanadi.

2. Inkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari kechishiga etnik identiklikning kognitiv hamda affektiv komponentlarining rivojlanganligi darajasi ta’sir ko‘rsatadi.

3. Inkulturatsiyaning asosiy ijtimoiy agentlari oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla, diniy va ijtimoiy institutlar, shuningdek, OAV va ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi. Mazkur agentlarning qadriyat va me’yorlarni o‘zaro muvofiq tarzda streotiplarsiz yetkazishi inkulturatsiyaning dinamik izchil kechishini ta’minlaydi.

4. Oila shaxs inkulturatsiya jarayonining birlamchi va eng barqaror ijtimoiy omili hisoblanadi. Psixologik xavfsizlik va madaniy davomiylik oila tarixini bilish, qarindoshlar bilan jipslik, avlodlararo muloqot, axloqiy, mehnat, maishiy, madaniy va milliy-diniy an’analar etnik aynanlikni saqlash asosida ta’minlanadi.

5. Etnik identiklik yosh davriga muvofiq ravishda dinamik rivojlanib boradi. O‘spirinlik va ilk yetuklik davrida etnik identiklikning kognitiv shkalasi affektiv shkalaga nisbatan yuqoriroq darajada rivojlangan bo‘lib, ularda o‘z etnik mansubligiga, o‘z xalqi tarix va madaniyatga oid izlanish hamda kognitiv faollik nisbatan kuchli namoyon bo‘ladi. Yetuklik davrida esa etnik identiklikning kognitiv va affektiv kompjnentlarining rivojlanishi yuqori darajada namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Bu holat etnik identiklik shaxs ulg‘ayishi bilan har ikkala komponent bo‘yicha ham anglangan va barqaror tarzda bo‘lishini ifodalaydi.

6. Etnik identiklikning kognitiv va affektiv komponentlarida tarkibiy gender tafovutlarni kuzatishimiz mumkin: erkaklarda kognitiv komponent, ayollarda esa affektiv affektiv komponent nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Ushbu farqni biologik jinsning bevosita ta’siri sifatida emas, balki gender ijtimoiylashuvi, oilaviy rollar va madaniy tajribani o‘zlashtirish usullaridagi tafovutlar bilan izohlashni lozim topdik.

7. Sh.Shvars metodikasi bo‘yicha o‘spirinlarda mustaqillik va erishganlik qadriyatlari, ilk yetuklik davrida hukmronlik hamda erishganlik, yetuklik davrida esa an’anaviylik va xavfsizlik qadriyatlari nisbatan ustun turishi aniqlandi. Keltirilgan natija yosh ulg‘ayishi bilan milliy qadriyat va an’analarga e’tibor hamda qiziqish ortib borishining yaqqol ifodasidir.

8. Bizning tadqiqotimizda qadriyatlar tizimini o‘rganish davomida gender xususiyatlari ham aniqlangan bo‘lib, erkaklarda hukmronlik va erishganlik, ayollarda xavfsizlik hamda mehribonlik qadriyatlari nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Ushbu tafovvutlarni biz erkak va ayollarga nisbatan madaniyat tomonidan qo‘yilgan talablardagi farqlar bilan bog‘ladik.

9. O‘zbek tilida ta’lim olgan respondentlarda an’anaviylik va hukmronlik, rus tilida ta’lim olganlarda esa mustaqillik va erishganlik qadriyatlarining nisbatan ustunligi kuzatildi.

10. M.S.Ryabova metodikasi natijalari o‘zbek respondentlarda oila tarixi, qarindoshlik jipsligi, axloqiy an’analar, madaniy-bo‘sh vaqt va milliy-diniy an’analarni saqlash ko‘rsatkichlari etnik jihatdan aralash oilalar vakillariga nisbatan yuqoriroq ekanini ko‘rsatdi. Bu holat o‘zbek oilalarida avlodlararo aloqalar, jamoaviy yo‘nalish, qarindoshlik majburiyatlari va marosimlarning inkulturatsiya vositasi sifatida barqaror saqlanishi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida biz quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini o‘qitish davomida madaniy qadriyatlar, urf-odat va an’analar to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan mavzularni joriy etish tavsiya etiladi. Darslarda oila tarixi, mahalliy an’analar, milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot va tolerantlik masalalari interfaol usullar orqali muxokama etilishi lozim.

2. Oilada bolani tarbiyalashda madaniy norma va qadriyatlarni majburan singdirish emas, balki yoshlarning mustaqil izlanishi va ongli tanlovini qo‘llab-quvvatlab borish zarur. Katta avlod vakillari bilan suhbat, shajara daraxtini tuzish, tarix va milliy san’at o‘rganish, madaniy loyihalarda ishtirok etish kabi faoliyatlar tavsiya qilinadi.

3. Ilk yetuklik davridagi yoshlar uchun kasbiy maqsadlar, shaxsiy qadriyatlar va etnomadaniy mansublikni uyg‘unlashtirishga yordam beradigan psixologik treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq. Treninglarda maqsad qo‘yish, qaror qabul qilish, hayotiy rejalashtirish va madaniyatlararo kompetentlik ko‘nikmalari rivojlantirilishi kerak.

4. Yosh avlodga madaniy meros va tajribani uzatishda an’analarni o‘zgarmas shaklda saqlash emas, ularning mazmunini zamonaviy hayot talablariga mos tarzda tushuntirishga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

5. O‘zbek oilalarida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan axloqiy, madaniy va milliy-diniy an’analarni yoshlarga faqat marosim sifatida emas, balki ularning tarbiyaviy, axloqiy va jipslashtiruvchi jixatlarini izohlash orqali uzatish lozim.

6. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda milliy madaniyatni stereotipsiz, zamonaviy va yoshlar uchun jozibador shaklda yorituvchi kontentni ko‘paytirish lozim.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.10.04.P.01.18
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

НАСИМДЖАНОВА МАХСУМА МАЖИДОВНА

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИНКУЛЬТУРАЦИИ И АККУЛЬТУРАЦИИ ЛИЧНОСТИ

19.00.05 — Социальная психология. Этнопсихология

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)

Ташкент — 2026

Тема диссертации доктора психологических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2023.2.DSc/P102.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Мухамедова Дильбар Гафурджановна** доктор психологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Абдумажидова Диллора Рахматуллаевна** доктор психологических наук (DSc)
	Умаров Бахриддин Мингбаевич доктор психологических наук, профессор
	Муллабоева Нозима Махмуджановна доктор психологических наук (DSc), профессор.
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный университет востоковедения**

Защита диссертации состоится «11» декабря 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.10.04.P.01.18 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д. 4, здание факультета социальных наук Национального университета Узбекистана, 4-й этаж, ауд. 416. Тел.: (+99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №315). (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д. 4, административное здание НУУз, 2-й этаж, каб. 4. Тел.: (+99871) 236-46-55; факс: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «23» ноября 2026 года.
(Протокол реестра № 78 от «23» ноября 2026 года).

У. Б. Шамсиев
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

А. С. Туракулова
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

Н. С. Сафаев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор психологических наук, профессор

Сканировано с CamScanner

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации осознание национальной идентичности, сохранение собственной культуры и языка, а также их передача следующим поколениям на основе традиционных ценностей и их адаптации к современным условиям представляют собой сложную задачу для каждого общества и социально-этнической группы. В документах Организации Объединённых Наций, посвящённых культурному разнообразию и сохранению нематериального культурного наследия, подчёркивается, что культурное многообразие и интеграция служат не только источником экономического развития гражданского общества, но и средством обеспечения его интеллектуальной, эмоциональной, нравственной и духовной жизни. В этих документах отмечается, что соотношение между развитием общемировой культуры и судьбой национальных культур становится одной из ключевых проблем, при этом значение национальных культур снижается. Одной из причин их разрушения называется стремительное распространение элементов «массовой культуры», которые превращаются в общепринятый культурный стандарт. В связи с этим расширение межкультурной интеграции и коммуникации, миграционных процессов и возможностей изучения иностранных языков, усиление оценочного отношения человека к стереотипам, связанным с обычаями, традициями, ценностями и нормами поведения своего народа, а также стремление к их изменению обусловливают необходимость выявления социально-психологических факторов и изучения особенностей процессов инкультурации и аккультурации.[1]

Формирование культурной целостности мира сопровождается возникновением новых, ранее неизвестных проблем. Расширение межкультурных контактов порождает кризисы, деструктивные явления, изменения мировоззрения и инновационные поиски в каждой культуре. Взаимодействие культур вызывает необходимость переосмысления межкультурных связей и собственной культурной самобытности на основе межкультурной толерантности и адекватного восприятия культурных различий. В этих условиях важнейшими предпосылками становятся эффективное взаимодействие культур и взаимопонимание между их носителями. Сегодня многие исследователи отмечают тенденции культурного упадка: распространение антиценностей, утрата нравственных ориентиров и идеалов охватывают практически все сферы человеческой деятельности. Всё более отчётливо проявляется отчуждение личности от традиций, идеалов, норм и ценностей, на основе которых возможно становление и саморазвитие культурной личности. Распространяясь в обществе, это явление глубоко затрагивает молодёжную субкультуру, которая быстро приобретает черты антикультуры. Это усиливает социальную напряжённость и создаёт предпосылки для возникновения и обострения насилия, деструкции и

[1] Всеобщая декларация Юнеско о культурном разнообразии// https://ifap.ru/ofdocs/unesco/culture.htm

противоречий как в молодёжной среде, так и между поколениями.

В Стратегии «УЗБЕКИСТАН — 2030», разработанной по инициативе Президента Республики Узбекистан и утверждённой Указом от 11 сентября 2023 года № 158, определены задачи по реализации стремления народа к построению свободного, благополучного и сильного Нового Узбекистана, созданию условий для раскрытия потенциала каждого гражданина, воспитанию здорового, образованного и духовно развитого поколения, формированию сильной экономики как важного звена глобального производства, гарантированному обеспечению справедливости, верховенства закона, безопасности и стабильности. Выполнение этих задач обусловливает необходимость разработки социальных и психологических механизмов формирования с раннего детства уважения к национальным и общенациональным ценностям, позволяющих предотвратить возникновение духовного вакуума у молодёжи.[2]

Настоящая диссертация в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № 158 «О Стратегии “УЗБЕКИСТАН — 2030”», Указом от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», постановлением от 26 марта 2021 года № ПП-3160 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках приоритетного направления I «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.[3] Исследования, посвящённые изучению значения освоения человеком культурных ценностей, норм поведения, обычаев и традиций своего народа,

[2] Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № 158 «О Стратегии “УЗБЕКИСТАН — 2030”» https://lex.uz/ru/docs/-6600413

